



**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ИҚТИСОДИЁТ
УНИВЕРСИТЕТИ**



**ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИ
ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ**



**ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИ
ДАВЛАТ БОЖХОНА
ҚЎМИТАСИ
БОЖХОНА
ИНСТИТУТИ**

**“ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИ ДОИРАСИДА
ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТНИ ДАВЛАТ
ТОМОНИДАН ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ”**

**мавзусида республика илмий-амалий анжумани материаллари
тўплами**

Сборник материалов научно-практической конференции на тему

**“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
В КОНТЕКСТЕ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ
ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА”**

Тошкент шаҳри, 2019 йил, 24 апрель

*U. Radjabov, i.f.n. dotsenti,
N. Xabibullayev, ST-71 guruhi
talabasi, TMI*

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TUTGAN O‘RNI

Har qaysi mamlakat taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning eng muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti va modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy hayotda qator funksiyalarni bajaradi. Iqtisodiy vazifa tadbirkorlikni keng quloqch yoydirish bilan bog‘liq bo‘lib, raqobat muhitini shakllantirish, bozorni turli tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy vazifa esa, yangi ish joylari tashkil qilish orqali bandlikni ta‘minlash, aholining daromadini oshirish yo‘li bilan uning turmush darajasini ko‘tarishni nazarda tutadi. Uning siyosiy vazifasi jamiyat iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini – o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanish manbai sifatida namoyon bo‘lishidir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzalliklari juda ko‘p. Bunda bozor kon‘yunkturasiga tez moslashish, talabning o‘zgarishini tez ilg‘ash, faoliyatning bir turidan boshqasiga kam xarajat evaziga tezda moslashish imkoniyatlari yaratiladi. Faoliyatning ushbu sektori bandlik muammosini hal qilish, ishsizlik darajasini pasaytirish, tadbirkorga o‘zining erkin mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini oshirishda juda muhimdir. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati aholi daromadining turmush darajasini oshirishning barqaror manbai bo‘lib bormoqda.

Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan qulay shart-sharoitlarni yaratish – jamiyatda samarali amal qiladigan bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkdorlar sinfini qo‘llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining yangi, demokratik institutlarini qaror toptirishning muhim shartidir.

O‘zbekistonda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va uni rivojlantirishning tashkiliy va moliyaviy chora-larini o‘z tarkibiga olgan dastur qabul qilingan va amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari foydasiga takomillashtirib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyuldagi “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-sonli, 2016-yil 5-oktabrdagi

“Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni ta’minlashga, xususiyl mulikni xar tomonlama himoya qilishga va isblarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4848-sonli qarorlari qabul qilinganligi va soliqlardam berilgan ko‘pgina imtiyozlar bunga misol bola oladi.

Tadbirkorlar, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni qollab quvvatlash natijasida, 2018-yilning yanvar-sentabr oylarida 38,1 mingtadan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 23,6 % ko‘p demakdir. Eng ko‘p kichik mikrofirmalar savdo sohasida 23,1 %, sanoat tarmog‘ida 22,4 %, qurilish tarmog‘ida 12,9 %, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 11,8 %, yashash va ovqatlanishda 7,7 %, tashish va saqlashda 4 % tashkil etilgan. 2018-yilning yanvar-martida 13,2 mingtadan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilingan.

Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- soliqqa tortish tizimini mukammallashtirish va tekshiruvlarni qisqartirish;
- tadbirkorlarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish;
- bank-tadbirkor aloqalarini soddalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, bugun tadbirkor davlat himoyasida bo‘lib, olgan foydasiga to‘la egalik qilish, o‘zining faoliyat doirasini kengaytirish imkoniyatlariga ega. Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning rivojlanishi esa milliy iqtisodiyot real sektori takomillashuviga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida alohida o‘rin tutmoqda.

*A.C. Юсупов, и.ф.н.,
ТДИУ докторанти (DSc)*

ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ ВА ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ҲАМКОРЛИК ТАРАҚҚИЁТИ

2017-2021 йилларда Ўзбекистонда барқарор ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлашга қаратилган Ҳаракатлар стратегияси¹⁷⁹ – 2030 йилга бориб Ўзбекистонни аҳоли жон бошига даромади юқори бўлган давлатлар қаторига олиб чиқиш йўлидаги муҳим қадам бўлди.

¹⁷⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони. 2017 йил 7 февраль.